



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ САВОДХОНЛИККА ÔRGATISHDA ÔYINLARNING AHAMIYAT

Miyliyeva Gavhar Otamurodovna
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo`rg`on filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada Maktabgacha ta`lim tashkilotlarda bolaga yo`naltirilgan ta`limni amalga oshirishda o`yinning o`ziga xosligi va afzalliklari to`la yoritilgan bo`lib, aynan maktabgacha ta`lim sohasi hodimlariga bir qator yangiliklarni ochib berishga hizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Maktabgacha ta`lim, o`yin, faoliyat, jarayon, bilish, nutq, savodxonlik, davlat talablari, rivojlanish, ijtimoiylik.

Bolalar hayoti va faoliyatini to`g`ri tashkil etish — ulami to`g`ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o`yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o`yinda bola yashashni o`rganmaydi, balki o`z hayoti bilan yashaydi..

A.P.Usova

Mustaqil O`zbekistonning kelajagi ko`p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta`lim-tarbiya berish sifatiga bog`liq. Shu bois, Vatani, xalqni sevadigan, istiqlol g`oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta`lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. Shuning bilan birga ta`lim tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma`naviy kamolotini ta`minlash mazkur yo`nalishning dolzarb muammolaridan biri bo`lib, bu haqida O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunida ta`lim tizimini tubdan isloh qilish, ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalardan biri ekanligi ko`rsatilgan. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o`zining “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitobida “O`z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo`lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi” degan fikrni e`tirof etadilar. Ayni shu so`zlardan kelib chiqqan holda aytish kerakki, maktabgacha ta`lim umuman olganda uzliksiz ta`limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o`qish uchun tayyor bo`lgan sog`lom va to`laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko`zda tutadi.



Maktabgacha tarbiya o'qituvchilari bolalarni og'zaki va yozma til bilan doimiy ravishda tanishtirish, oldingi bilim va til tajribasiga tayanish orqali savodxonlikni rivojlantiradilar. Rasmlar, o'yin va bosma so'z og'zaki til bilan uyg'unlashib, bolangizga maktabgacha o'qish va yozish asosidagi ramziy tasvirni tushunishga yordam beradi. Uning o'qituvchisi maktabgacha yoshdagi o'qishni rivojlantirish uchun sinfda turli xil qiziqarli va qiziqarli strategiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Savodxonlikni har kunning bir qismiga aylantirish juda foydalidir. Shuningdek, bolalar xavfsiz tajriba va o'z dunyosini kashf qilish imkonini beruvchi bevosita tajribalarni qo'llash kerak. Har bir bola o'ziga xos vaqt oralig'ida til ko'nikmalarini o'rganadi va rivojlantiradi.

O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir. Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynovchilar soni ko'p bo'lmasa-da, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog'chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta'minlash uchun yosh guruhlarida rang-barang o'yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o'yinlar qoidalarining ichki, yashirin tabiati bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o'ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidali o'yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo'ladi. Bu o'ynovchiga syujetni osonlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha rollar kiritish imkonini



beradi. Ijodiy o`yinlar bolalarda katta qiziqish uyg`otadi va ularga ulkan ta'sir ko`rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o`yinlardan foydalanish xato bo`lur edi. Bolalarning qoidali o`yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalar harakatlarning muayyan normalarini so`ng esa bolalarning bir-biriga bo`lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o`zini va o`zi bilan birga o`ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalami bajarishdagi mustaqillik o`yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o`ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo`ladi. O`yinning ijtimoiy ta'siri, u uyg`otadigan hislar unda tarkib topadigan munosabatlarda mujassamlashgan bo`ladi.

Psixologlar adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o`ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o`zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bola rolli o`yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi, ifodali, jo`shqin xistuyg`uli jihatlarini aks ettiradi;

3) rolli o`yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o`z istagini amaliyotga tadbiiq qiladi;

4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo`lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o`chmas iz qoldiradi. O`yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o`yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O`yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg`ulotlardan so`ng, sayrlardan so`ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o`ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o`yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko`proq didaktik o`yinchoqlar, stol ustida o`ynaladigan stol-bosma o`yinlari, syujetli-rolli o`yinlarni o`ynagan ma`qul.

Xulosa o`rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o`yin faoliyati bilan birga ta`limiy mashg`ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta`limiy mashg`ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og`zaki nutqni lug`at boyligi, tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to`g`ri so`zlashlikka o`rgatish, bog`lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo`lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san`at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg`ulotlarga qaratilgan bo`ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta`limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta- maxsus ta`lim muassasalari uchun darslik. T.: „Istiqlol”, 2006 y.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНООЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.,”Tafakkur bo,,stoni”, 1992